BAQTRIYA MARKAZIY OSIYONING QADIMGI SIVILIZATSIYA MARKAZI

Jo‘rayev Xayrullo Narzullo o‘g‘li

Mustfaqulova Dilfuza

Termiz arxeologiya muzeyi qayta ta’mirlovchi rassomlari (restavratorlari)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyoning qadimgi tarixida muhim o‘rin tutgan Baqtriya davlatining shakllanishi, geografik joylashuvi, siyosiy va iqtisodiy hayoti, madaniyati, diniy qarashlari hamda qo‘shni davlatlar bilan munosabatlari yoritiladi. Baqtriya Amudaryoning yuqori va o‘rta oqimi hududlarida joylashgan bo‘lib, qadimgi Sharq va Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari o‘rtasidagi muhim ko‘prik vazifasini bajargan. Maqolada Baqtriyaning Ahamoniylar davlati tarkibidagi mavqei, Aleksandr Makedonskiy istilosi, Yunon-Baqtriya podsholigining vujudga kelishi va uning siyosiy-madaniy taraqqiyotdagi ahamiyati ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Baqtriya, Markaziy Osiyo, Amudaryo, Baqtra, Ahamoniylar, Aleksandr Makedonskiy, Yunon-Baqtriya podsholigi, Kushonlar, qadimgi sivilizatsiya, savdo, madaniyat.

Kirish

Markaziy Osiyo hududi qadim zamonlardan boshlab turli xalqlar va sivilizatsiyalar chorrahasi bo‘lib kelgan. Ushbu hududda shakllangan qadimgi davlatlar orasida Baqtriya alohida ahamiyatga ega. Baqtriya nafaqat siyosiy va iqtisodiy jihatdan kuchli davlatlardan biri bo‘lgan, balki Sharq va G‘arb madaniyatlarining o‘zaro aloqalarida ham muhim rol o‘ynagan.[1]

Baqtriya tarixini o‘rganish O‘zbekiston, Tojikiston va Afg‘oniston hududlarining qadimgi tarixini tushunish uchun katta ahamiyatga ega. Chunki qadimgi Baqtriya hududining katta qismi hozirgi Afg‘onistonning shimoliy qismi, O‘zbekistonning janubiy viloyatlari va Tojikistonning ayrim hududlarini qamrab olgan. Uning markaziy shahri Baqtra bo‘lib, bu shahar qadimgi dunyoning muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri hisoblangan.Baqtriya haqida ma’lumotlar qadimgi yunon tarixchilari asarlarida, fors yozma manbalarida, arxeologik topilmalarda va boshqa tarixiy manbalarda

uchraydi. Ayniqsa, Gerodot, Ktesiy, Arrian kabi qadimgi mualliflarning asarlari Baqtriyaning siyosiy tarixi haqida muhim ma’lumot beradi. Arxeologik tadqiqotlar esa ushbu hududda juda qadimdan rivojlangan shaharsozlik, hunarmandchilik va dehqonchilik mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.[2]

Baqtriyaning geografik joylashuvi

Baqtriya qadimgi Markaziy Osiyoning janubiy qismida joylashgan tarixiy-madaniy o‘lka bo‘lgan. Uning asosiy hududi Amudaryoning yuqori oqimi va uning irmoqlari atrofida joylashgan. Shimolda Baqtriya So‘g‘diyona, janubda esa Hindiston va Afg‘onistonning boshqa tarixiy hududlari bilan tutashgan. Sharq tomonida Pomir va boshqa tog‘li hududlar joylashgan bo‘lsa, g‘arbda Marg‘iyona va Eron hududlari bilan aloqalar mavjud edi.Baqtriyaning geografik o‘rni uning taraqqiyotida juda katta ahamiyat kasb etgan. Bir tomondan, Amudaryo va uning irmoqlari dehqonchilik uchun zarur suv manbalarini ta’minlagan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tog‘ va vodiylarning uyg‘unligi chorvachilik va hunarmandchilikning rivojlanishiga imkon yaratgan.Hududning strategik joylashuvi ham Baqtriyaning siyosiy kuchga aylanishiga sabab bo‘lgan. Baqtriya Eron, Markaziy Osiyo, Hindiston va Sharqiy Turkiston yo‘nalishlarini bog‘lovchi savdo yo‘llari yaqinida joylashgan edi. Shu sababli turli xalqlar o‘rtasidagi savdo, madaniy va siyosiy aloqalarda Baqtriya muhim vositachi bo‘lib xizmat qilgan.Baqtriyaning markazi Baqtra shahri edi. Baqtra keyinchalik Bactra yoki Zariaspa nomlari bilan ham manbalarda uchraydi. Hozirgi Afg‘oniston hududidagi Balx shahri qadimgi Baqtra bilan bog‘lanadi. Balxning qadimiyligi va strategik mavqei tufayli u asrlar davomida Markaziy Osiyoning eng muhim shaharlaridan biri bo‘lib kelgan.[3]

Baqtriyaning qadimgi tarixi va shakllanishi

Baqtriya hududida odamlarning yashashi juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Arxeologik topilmalar bu hududda bronza davridayoq rivojlangan qishloqlar, sug‘orish inshootlari, hunarmandchilik markazlari va diniy inshootlar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.Miloddan avvalgi II ming yillikda Markaziy Osiyoning janubiy hududlarida rivojlangan madaniyatlar shakllangan. Ularning ayrimlari keyinchalik Baqtriya sivilizatsiyasining rivojlanishiga zamin yaratgan. Ayniqsa, qadimgi Marg‘iyona va Baqtriya

hududlaridagi arxeologik yodgorliklar o‘sha davr aholisi yuqori darajadagi hunarmandchilik va me’morchilikka ega bo‘lganini ko‘rsatadi.[4]

Baqtriya dastlab mustaqil siyosiy birlik sifatida shakllangan bo‘lsa-da, keyinchalik yirik imperiyalar tarkibiga kirgan. Miloddan avvalgi VI asrda Baqtriya Ahamoniylar imperiyasi tarkibiga qo‘shilgan. Ahamoniylar hukmdorlari Markaziy Osiyoning katta qismini o‘z davlatlariga birlashtirganlar.Baqtriya Ahamoniylar davlatining eng muhim satrapliklaridan biri bo‘lgan. Uning iqtisodiy va harbiy salohiyati yuqori bo‘lganligi sababli Ahamoniylar uchun katta strategik ahamiyatga ega edi. Baqtriyalik jangchilar imperiya qo‘shinlarining tarkibida turli harbiy yurishlarda qatnashgan.Qadimgi yunon tarixchisi Gerodot Ahamoniylar qo‘shini tarkibida baqtriyaliklar, so‘g‘diylar va boshqa Markaziy Osiyo xalqlari vakillari bo‘lganini qayd etadi. Bu ma’lumot Baqtriya aholisi harbiy jihatdan ham muhim kuch bo‘lganini ko‘rsatadi.

Baqtriyaning iqtisodiy hayoti

Baqtriya iqtisodiyotining asosini sug‘orma dehqonchilik tashkil etgan. Amudaryo va uning irmoqlari, shuningdek, tog‘lardan oqib tushuvchi daryolar sug‘orish tizimlarini yaratish uchun qulay sharoit tug‘dirgan.[5]

Qadimgi baqtriyaliklar bug‘doy, arpa, uzum va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirganlar. Chorvachilik ham iqtisodiyotda muhim o‘rin egallagan. Ayniqsa, qo‘y, echki, qoramol va ot boqish keng tarqalgan.

Hunarmandchilikning turli tarmoqlari ham rivojlangan. Kulolchilik, metallga ishlov berish, zargarlik, to‘qimachilik va qurolsozlik kabi sohalar taraqqiy etgan. Arxeologik qazishmalar davomida topilgan turli idishlar, metall buyumlar, zargarlik mahsulotlari va qurollar bu hududda hunarmandchilik yuqori darajada rivojlanganidan dalolat beradi.Savdo Baqtriya iqtisodiyotining yana bir muhim yo‘nalishi bo‘lgan. Baqtriya geografik jihatdan Sharq va G‘arb o‘rtasidagi yo‘llarga yaqin joylashgani sababli turli mamlakatlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirgan. Baqtriyadan qimmatbaho metallar, chorvachilik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari va boshqa mahsulotlar olib chiqilgan.Baqtriyaning savdo aloqalari uning madaniy taraqqiyotiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Savdogarlar orqali

nafaqat mahsulotlar, balki turli g‘oyalar, diniy qarashlar, san’at uslublari va texnologiyalar ham tarqalgan.[6]

Baqtriya va Ahamoniylar imperiyasi

Miloddan avvalgi VI asrda Ahamoniylar sulolasi Eron hududida kuchli imperiyani shakllantirdi. Kir II va uning vorislari davrida imperiya Markaziy Osiyoning katta qismini ham o‘z tarkibiga qo‘shib oldi. Baqtriya Ahamoniylar imperiyasining sharqiy hududlaridagi eng muhim satrapliklardan biriga aylandi.Ahamoniylar davrida Baqtriyaning siyosiy va iqtisodiy ahamiyati oshdi. Baqtriya satraplari imperiya hukmdorlariga bo‘ysungan holda mahalliy boshqaruvni amalga oshirganlar. Shu bilan birga, mahalliy an’analar va madaniy xususiyatlarning ma’lum darajada saqlanib qolishiga imkon berilgan.Baqtriya Ahamoniylar imperiyasining harbiy yurishlarida ham faol qatnashgan. Baqtriyalik askarlar imperiyaning turli hududlardagi harbiy harakatlarida ishtirok etgan. Bu esa Baqtriyaning harbiy salohiyati yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi.

Ahamoniylar davrida Eron madaniyati bilan Markaziy Osiyo madaniyati o‘rtasidagi aloqalar kuchaydi. Ma’muriy boshqaruv, yozuv, pul muomalasi, me’morchilik va diniy qarashlarda o‘zaro ta’sir kuchaydi.[7]

Aleksandr Makedonskiy istilosi va Baqtriya

Miloddan avvalgi IV asrda Aleksandr Makedonskiyning Sharqqa yurishlari Baqtriya tarixida yangi davrni boshlab berdi. Miloddan avvalgi 329-yilda Aleksandr Ahamoniylar imperiyasining sharqiy hududlariga kirib kelib, Baqtriyani egallashga harakat qildi.Baqtriyaning bosib olinishi oson kechmagan. Mahalliy aholining qarshiligi, tog‘li hududlarning murakkabligi va siyosiy kuchlarning qarshilik ko‘rsatishi Aleksandr qo‘shinlari uchun jiddiy muammolar tug‘dirgan.

Baqtriya va So‘g‘diyonadagi qarshilik harakatlarida Spitamen muhim rol o‘ynagan. U Aleksandrga qarshi kurashgan eng mashhur mahalliy yetakchilardan biri sifatida tarixda qolgan. Spitamen boshchiligidagi qarshilik harakati bir necha yil davom etgan va Makedoniya qo‘shinlariga katta qiyinchiliklar tug‘dirgan.[8]

Aleksandr Baqtriyani o‘z nazoratiga olgach, hududda mustahkam siyosiy va harbiy tizim yaratishga intildi. U mahalliy zodagonlar bilan ittifoqlar tuzdi, harbiy garnizonlar

joylashtirdi va yunon-makedoniyalik aholini yangi shaharlarga ko‘chirdi.Aleksandrning Baqtriya bilan bog‘liq siyosatining eng mashhur jihatlaridan biri uning Baqtriya zodagonlaridan bo‘lgan Roksanaga uylanishidir. Bu nikoh siyosiy va madaniy yaqinlashuv ramziga aylangan.Aleksandr vafotidan so‘ng uning imperiyasi parchalanib ketdi. Natijada Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida yunon-makedoniyalik hukmdorlar hokimiyati saqlanib qoldi.[9]

Yunon-Baqtriya podsholigi

Miloddan avvalgi III asrning o‘rtalarida Baqtriya hududida Yunon-Baqtriya podsholigi shakllandi. Bu davlat Markaziy Osiyo tarixida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Uning hukmdorlari yunon-makedoniyalik siyosiy an’analarni mahalliy madaniyat bilan uyg‘unlashtirdilar.Yunon-Baqtriya podsholigining asosiy markazlaridan biri Baqtra shahri bo‘lgan. Keyinchalik davlat hududi kengayib, So‘g‘diyona va Afg‘onistonning ayrim qismlarini, hatto Shimoliy Hindiston hududlarini ham qamrab olgan.[10]

Yunon-Baqtriya podsholigi davrida shaharsozlik, savdo va hunarmandchilik rivojlangan. Yunon madaniyatining mahalliy an’analar bilan qo‘shilishi natijasida o‘ziga xos madaniy muhit shakllangan.Bu davr tangalari alohida ahamiyatga ega. Yunon-Baqtriya hukmdorlari o‘z nomlari va tasvirlari tushirilgan tangalarni zarb qildirganlar. Ushbu tangalar davlatning iqtisodiy hayoti, hukmdorlar sulolasi va san’at uslublari haqida muhim ma’lumot beradi.Yunon-Baqtriya san’atida yunon va sharqona an’analar uyg‘unlashgan. Haykaltaroshlik, me’morchilik va amaliy san’atda ellinistik uslublar mahalliy shakllar bilan birga qo‘llanilgan.

Yunon-Baqtriya podsholigi Hindiston bilan ham faol aloqalar o‘rnatgan. Savdo yo‘llarining rivojlanishi natijasida Hindiston, Markaziy Osiyo va yunon dunyosi o‘rtasidagi madaniy almashinuv kuchaygan.

Baqtriya madaniyati va diniy qarashlari

Baqtriya madaniyati turli xalqlar va sivilizatsiyalar ta’sirida shakllangan. Mahalliy an’analar Eron, yunon, hind va boshqa madaniyatlar bilan o‘zaro ta’sirga kirishgan.

Baqtriyada diniy qarashlar ham rang-barang bo‘lgan. Zardushtiylik bilan bog‘liq diniy an’analar bu hududda muhim o‘rin tutgan. Ayrim tadqiqotchilar Baqtriya hududini

zardushtiylikning shakllanishi va rivojlanishi bilan bog‘liq eng muhim hududlardan biri sifatida ko‘rsatadilar.Qadimgi Baqtriya hududida turli diniy marosimlar uchun mo‘ljallangan inshootlar topilgan. Ular qadimgi aholining diniy hayoti va dunyoqarashini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.Baqtriya san’ati ayniqsa haykaltaroshlik va zargarlik buyumlarida namoyon bo‘ladi. Arxeologik topilmalar orasida oltin va kumush buyumlar, bezaklar, haykalchalar, sopol idishlar va boshqa san’at namunalari mavjud.

Baqtriya madaniyatining eng muhim xususiyatlaridan biri uning ochiqligidir. Hudud orqali turli xalqlar harakatlangan va ularning madaniy an’analari mahalliy madaniyat bilan uyg‘unlashgan. Shu jihatdan Baqtriya Markaziy Osiyoda madaniyatlararo aloqalarning qadimgi markazlaridan biri bo‘lgan.[11]

Baqtriyaning xalqaro savdo va madaniy aloqalardagi o‘rni

Baqtriyaning tarixiy ahamiyati faqat siyosiy voqealar bilan cheklanmaydi. Uning Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo va madaniy aloqalarda tutgan o‘rni ham nihoyatda katta.Qadimgi savdo yo‘llari orqali Baqtriya Eron, Hindiston, So‘g‘diyona, Xitoy va boshqa hududlar bilan bog‘langan. Keyingi davrlarda Buyuk Ipak yo‘li deb atalgan savdo tizimining rivojlanishida ham Baqtriya hududi muhim o‘rin egallagan.

Savdo aloqalari natijasida turli tovarlar bilan bir qatorda ilm-fan, texnika, san’at va diniy qarashlar ham bir hududdan ikkinchi hududga tarqalgan. Shu sababli

Baqtriyaning Hindiston bilan aloqalari ham alohida ahamiyatga ega. Yunon-Baqtriya davrida bu aloqalar yanada kuchaygan. Keyinchalik Baqtriya hududi Kushonlar davlati shakllanishi va rivojlanishi jarayonida ham muhim siyosiy va iqtisodiy hudud bo‘lib qolgan.[12]

Baqtriyaning tarixiy merosi

Baqtriyaning siyosiy tarixi turli bosqichlardan iborat bo‘lgan bo‘lsa-da, uning madaniy merosi keyingi davrlarda ham yashab kelgan. Baqtriya hududida shakllangan shaharsozlik, hunarmandchilik, sug‘orma dehqonchilik va savdo an’analari keyingi davlatlar taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatgan.

Baqtriya hududining Kushonlar davrida ham katta ahamiyatga ega bo‘lgani uning tarixiy davomiyligini ko‘rsatadi. Kushonlar davrida Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi aloqalar yanada kuchayib, buddaviylik kabi diniy oqimlar keng tarqalgan.[13]

Bugungi kunda Baqtriya bilan bog‘liq arxeologik yodgorliklar Markaziy Osiyoning qadimgi tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. O‘zbekistonning Surxondaryo hududidagi qadimgi shahar va yodgorliklar, xususan, qadimgi Baqtriya madaniy muhiti bilan bog‘liq arxeologik obyektlar mintaqaning qadimiy sivilizatsiyalarini o‘rganishga imkon beradi.[14]

Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan me’moriy inshootlar, sopol buyumlar, tangalar, qurollar va zargarlik mahsulotlari Baqtriya jamiyatining iqtisodiy va madaniy rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Xulosa

Baqtriya Markaziy Osiyoning qadimgi tarixida chuqur iz qoldirgan yirik tarixiy-madaniy o‘lkalardan biridir. Uning qulay geografik joylashuvi, sug‘orma dehqonchilik uchun mos tabiiy sharoiti, rivojlangan hunarmandchiligi va xalqaro savdo yo‘llariga yaqinligi Baqtriyaning qadimdan kuchli iqtisodiy va siyosiy markazga aylanishiga imkon bergan.Baqtriya Ahamoniylar imperiyasi tarkibida muhim satraplik bo‘lgan, Aleksandr Makedonskiy istilosi davrida kuchli qarshilik ko‘rsatgan va keyinchalik Yunon-Baqtriya podsholigining markaziga aylangan. Yunon-Baqtriya davrida esa yunon va mahalliy madaniyatlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida o‘ziga xos ellinistik madaniyat shakllangan.Baqtriyaning tarixiy ahamiyati uning siyosiy qudrati bilangina belgilanmaydi. U Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy, iqtisodiy va diniy aloqalarning rivojlanishida ham muhim vositachi bo‘lgan. Turli xalqlar va madaniyatlarning o‘zaro ta’siri natijasida Baqtriya hududida o‘ziga xos sivilizatsiya shakllangan.Bugungi kunda Baqtriya tarixi Markaziy Osiyoning qadimgi tarixini chuqur anglash uchun muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Arxeologik tadqiqotlarning davom etishi qadimgi Baqtriyaning siyosiy tuzilishi, iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari va madaniy aloqalari haqida yangi ma’lumotlarni ochib berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarov A. Sopollitepa. — Toshkent: Fan, 1973.
2. Asqarov A. Drevnezemledelcheskaya kultura epoxi bronzy yuga Uzbekistana. — Toshkent: Fan, 1977.
3. Asqarov A. O‘zbekistonda ilk shaharlarning paydo bo‘lishi. — Toshkent: Fan, 2007.
4. Masson V. M. Drevnezemledelcheskaya kultura Margiany. — Moskva: Nauka, 1959.
5. Sarianidi V. I. Drevnosti stran drevnego Vostoka. — Moskva: Nauka, 1980.
6. Pugachenkova G. A. Iskusstvo Uzbekistana: drevnost i srednevekove. — Toshkent: Fan, 1979.
7. Rtveladze E. V. Velikiy Shelkoviy put: entsiklopedicheskiy spravochnik. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1999.
8. Eshov B. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2012.
9. O‘zbekiston tarixi. 1-jild. Eng qadimgi davrdan milodiy V asrgacha. — Toshkent: Fan, 2019.
10. O‘zbekiston arxeologiyasi. — Toshkent: Fan, 2006.
11. Janubiy O‘zbekistonning bronza davri yodgorliklari. — Toshkent: Fan.
12. Sopolli madaniyati va Jarqo‘ton yodgorligi bo‘yicha arxeologik tadqiqotlar. — Toshkent: Fan.
13. Archaeometric investigations of the Molali pottery complex (Bronze Age, Uzbekistan). — Bronza davri kulolchilik texnologiyasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot.
14. Markaziy Osiyo arxeologiyasi: qadimgi davr yodgorliklari va moddiy madaniyat. — Toshkent: Fan.